

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024-yil yanvar-iyun*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 61-222-67-45*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruvin qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024-yil 1-iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **4 203** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **75** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **4 128** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi **5 220,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **107,3%** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **151,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **75,6 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **5 068,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **108,6%**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **721,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **119,9%**) tashkil etdi.


	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5 220,6	107,3
Nukus shahri	1 063,8	107,1
tumanlar:	-	
Amudaryo	452,5	107,7
Beruniy	259,5	107,2
Bo'zatov	38,8	106,6
Qorao'zak	242,6	106,2
Kegeyli	180,0	101,3
Qo'ng'iroq	403,2	108,3
Qonliko'l	189,0	106,0
Mo'ynoq	56,2	107,2
Nukus	151,8	108,8
Taxiatosh	208,8	100,7
Taxtako'pir	173,8	108,8
To'rtko'l	621,2	109,7
Xo'jayli	470,5	108,7
Chimboy	276,8	108,2
Shumanay	108,9	104,0
Ellikqal'a	323,3	107,8

2024-yilning yanvar-iyun oylarida 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan respublikaning To'rtko'l (**109,7%**), Nukus(**108,8%**), Xo'jayli (**108,7%**) tumanlari va Nukus shahrida (**107,1%**) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI VA ULUSHI

3

Ulushi, foizda




Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Nukus shahri 20,4 % bilan 1 063,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Bo'zatov tumani 0,7 % bilan 38,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-iyun oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **5 068,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **8,6%** ga oshdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi **97,1 %** ni tashkil etdi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **75,6 %** ni va **151,7** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **2,9 %** ulushiga to'g'ri keldi.



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

101,3	Beruniy
101,9	Ellikqal'a
105,4	Amudaryo
105,5	Chimboy
106,0	To'rtko'l
109,6	Qo'ng'iroq
138,9	Bo'zatov

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorao'zak (99,8 %), Nukus (99,8 %) va Qonliko'l (100,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 2,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Taxiatosh (16,1 %), Beruniy (6,1 %), Nukus shahri (3,9%) va To'rtko'l (3,3 %) tumanlarida kuzatildi.

2,9%



97,1%




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda

Nukus shahri	3 123,4	Xo'jayli	3 647,0
Amudaryo	2 125,3	Chimboy	2 388,2
Beruniy	1 259,7	Shumanay	1 870,3
Bo'zatov	1 771,8	Ellikqal'a	1 883,9
Qorao'zak	4 451,7	2024-yilning yanvar-iyun oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2 598,7 ming.so'mni (2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 105,8 %) tashkil etdi.	
Kegeyli	2 399,6	Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Taxtako'pir (4 467,3 ming. so'm), Qorao'zak (4 451,7 ming. so'm) va Xo'jayli (3 647,0 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi	
Qo'ng'irot	2 958,5		
Qonliko'l	3 507,0		
Mo'ynoq	1 666,6		
Nukus	2 806,2		
Taxiatosh	2 715,5		
Taxtako'pir	4 467,3		
To'rtko'l	2 706,6		



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar tayланмаси о'sish sur'ati (2024-yil yanvar-iyun), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rnlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	447,6	157,1
Nukus shahri	55,1	167,0
tumanlar:		
Amudaryo	32,5	158,0
Beruniy	35,1	161,5
Bo'zatov	8,3	147,6
Qorao'zak	24,2	153,5
Kegeyli	43,0	147,8
Qo'ng'iroq	23,6	171,6
Qonliko'l	19,6	147,1
Mo'ynoq	7,5	78,0
Nukus	18,1	136,8
Taxiatosh	11,7	312,7
Taxtako'pir	20,7	163,1
To'rtko'l	60,6	142,6
Xo'jayli	30,2	187,5
Chimboy	35,4	170,3
Shumanay	9,1	144,9
Ellikqal'a	15,9	145,0


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmag'an holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi
o'sish sur'atlari
(2024-yil yanvar-iyun)




Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm
(2024-yil yanvar-iyun)



Respublika bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **721,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **119,9%** ni tashkil etdi. Sh jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **447,6** mlrd. so'mni (**157,1 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **274,3** mlrd so'mni tashkil etdi (**86,4%**).

2024-yilning yanvar-iyun oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **447,6** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**228,7** mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga hajmi va ulushi



2024-yilning yanvar-iyun oylarida, respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarda parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **274,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosи **230,4** mlrd. so'm, qo'y va echkilar – **38,2** mlrd. so'mni, otlar – **3,9** mlrd. so'mni, parrandalar – **1,8** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosи hajmi va ulushi



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024-yil 1-iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 746 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 746 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	184,3	107,8
Nukus shahri	73,4	108,7
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	8,3	106,5
Beruniy	5,4	106,3
Bo'zatov	0,5	107,2
Qorao'zak	5,0	106,8
Kegeyli	2,0	106,6
Qo'ng'iroq	46,4	107,3
Qonliko'l	2,2	106,8
Mo'ynoq	0,8	108,9
Nukus	1,7	107,7
Taxiatosh	4,6	108,0
Taxtako'pir	1,1	107,5
To'rtko'l	11,8	107,2
Xo'jayli	10,5	107,2
Chimboy	5,1	107,5
Shumanay	0,8	107,4
Ellikqal'a	4,6	108,6

2024-yilning yanvar-iyun oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **184,3** mlrd. so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan **107,8%** ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **100,0%** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 125,5	100,0
Nukus shahri	706,3	62,8
tumanlar:		
Amudaryo	15,1	1,3
Beruniy	261,8	23,3
Bo'zatov	0,7	0,1
Qorao'zak	1,4	0,1
Kegeyli	99,5	8,8
Qo'ng'irot	1,4	0,1
Qonliko'l	6,2	0,5
Mo'ynoq	0,7	0,1
Nukus	0,1	0,0
Taxiatosh	6,0	0,5
Taxtako'pir	1,9	0,2
To'rtko'l	10,1	0,9
Xo'jayli	3,2	0,3
Chimboy	3,6	0,3
Shumanay	1,1	0,1
Ellikqal'a	6,3	0,6


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Nukus shahri (**706,3** mlrd. so'm), Beruniy (**261,8** mlrd. so'm) va Kegeyli (**99,5** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024-yilning yanvar-iyun oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 1 125,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **112,8%** ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **365,5** mlrd. so'm (o'sish sur'ati – **87,4%**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **760,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **131,2%**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Respublika bo‘yicha 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 167,8mlrd. so‘mni** tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **11,5 %** ga o‘sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

17,0%

367,7 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

83,0%

1 800,1 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **1 800,1** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **104,0 %** ga to‘g‘ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **83,0%** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024-yil 1-iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 195 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 190 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Nukus shahrida (122,4%) va Taxiatsosh tumanida (90,3%) kuzatildi

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 167,8	111,5
Nukus shahri	981,4	103,6
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	54,0	102,5
Beruniy	116,3	101,2
Bo'zatov	1,8	101,3
Qorao'zak	18,8	101,8
Kegeyli	3,8	100,4
Qo'ng'iroq	61,5	102,1
Qonliko'l	193,3	970,3
Mo'ynoq	63,3	102,6
Nukus	64,1	103,0
Taxiatsosh	244,8	99,8
Taxtako'pir	22,4	103,4
To'rtko'l	164,9	102,3
Xo'jayli	59,7	102,8
Chimboy	58,7	102,9
Shumanay	2,4	105,0
Ellikqal'a	56,8	101,9